

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi



## Cho'ponga aylangan shaxzoda



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: E. Frischbutter; Sarah S.

60 ta hikoyadan 10-si

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

*Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada*

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek



Bir kuni Muso Misrlik odam Ibroniylar xizmatkorni urayotganini ko'rib qoldi. U xizmatkorga yordam berishi xohladi.



Muso aslida Ibroniylar edi, ammo u Fira'vn xonadonida o'sib, tarbiya olgandi.


Muso atrofda hech kim yo'qligini ko'rib, urayotgan odamga tashlandi. Kurashda Muso Misrlikni o'ldirib qo'ydi. So'ng tezda uni ko'mdi.



Boshqa kuni Muso ikki Ibroniylar urishayotganini ko'rib, ularni to'xtatmoqchi bo'ldi. Ibroniylardan biri: "Sen meni xuddi Misrlikni oldirgandek o'ldirasanmi?" - dedi. Muso qo'rqib ketdi. Qilgan ishini hamma bilardi. Shuning uchun u Midiyon nomli joyga qochib ketdi.



Muso quduq yonida dam olayotgan edi. Midiyon oliyruhoniyisini ettita qizi suv olish uchun quduq yoniga kelishdi. Ular otasining podasiga suv berishi kerak edi.




Ammo boshqa cho'ponlar ularni itarib tahlashdi. Shunda Muso qizlarga yordam berdi.



Qizlarning otasi Yatro ular nima uchun uyga vaqtli qaytganini so'radi. Qizlar nima bo'lganini aytib berdi. Shunda Yatro:

"Sizga yordam bergan odamni uyga olib kelinglar," -dedi.



Muso Yatroning uyida yashashni boshladi. Keyin uning katta qiziga uylandi.



Misrda esa Fira'vn vafot etgandi. Xudoning xalqi bo'lgan Ibroniylar hamon Misr qulligida edi.



9

Ular judayam azob chekardi va Xudodan yordam sor'ashardi.



10

Xudo Ibroniylarni ozod qilish uchun Musoni ishlatmoqchi edi. Ammo Muso bundan bexabar edi. Muso Misrdan ketganiga qirq yil bo'lgandi. U Yatroning podasini boqib yurardi.



11

Bir kuni Muso yonidagi butada olov yonayotganini ko'rdi. Lekin butaning o'zi yonmasdi. Shunda u nima uchun buta yonmayotganiga qiziqdi.



12

Muso butaning yoniga kelganda, Xudo uni chaqirdi. U: "Men shu erdaman!" -deb javob berdi. "Butaga juda yaqin borma," -dedi Xudovand. Yana Xudo: "Oyoq kiyimingni ech, chunki sen turgan joy muqaddas!" -dedi.




13

"Mening odamlarimni ozod qilish uchun seni Fira'vn yoniga yuboraman!" -dedi Xudo. Lekin Muso Misrga borishga qo'rqardi.



14

Shunda Xudo Musoga Qudratli Kuchini ko'rsatdi. U Musoni hassasini ilonga aylantirdi.



15

Muso ilonni ushlaganida, u qaytib hassaga aylanib qoldi. Xudovand yana Qudratini ko'rsatdi.



16

U Musoga: "Qo'lingni ko'ylaging ichiga tiq," - dedi. Muso buni qilganda, uning qo'lga yara toshib, oppoq bo'lib qoldi.




17

Yan bir bor qo'lini ko'ylagini ichiga tiqqanda, tuzalib qoldi.




18

Ammo Muso hamon qarshilik bildirardi. U: "Men yaxshi gapirolmayman," - dedi. Shunda Xudo: "Akanq Horun sening o'rningga gapiradi, sen unga nima deyishni aytib turasan," - dedi.



19

Muso Yatroniciga qaytib bordi. So'ng Misrga ketdi.




20

Xudo Musoni akasi Horun bilan tog'da uchrashtirdi. Muso akasiga hamma narsani so'zlab berdi. Ular birga Ibroniylar etakchilariga borishdi. Muso ularga Xudoning Qudratini ko'rsatganda, Xudo ularga yordam berishiga ishonishdi. Hammasi birgalikda Xudoga hamdu sano aytishdi.



Muso va Horun Fira'vni yoniga borib, unga: "Xudo Uning odamlarini ozod qilishing kerakligini aytdi," -deyishdi.



Fira'vn esa: "Ularni qo'yib yubormayman!" -dedi. U Xudoga itoat etmadi.



Xudo Fira'vni fikrini o'zgartirish uchun Qudratini ko'rstadi.



Cho'ponga aylangan shaxzoda

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Chiqish 2-5

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber."

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!